




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-SENTABR**

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, Toshkent viloyatida jami 9947,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 107,3 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1494

•Bino va inshootlar qurish

370

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1043

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning shu davriga nisbatan 72,3 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,4 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,6 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 97,9 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 35,9 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 69,6 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.10.2023- y.	01.10.2022- y.	
Toshkent viloyati	2907	4023	72,3
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	125	207	60,4
Olmalik	134	214	62,6
Angren	169	282	59,9
Bekobod	118	183	64,5
Ohangaron	101	141	71,6
Chirchiq	293	344	85,2
Yangiyo'l	76	89	85,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	60	97	61,9
Ohangaron	69	83	83,1
Bekobod	87	122	71,3
Bo'stonliq	110	145	75,9
Bo'ka	115	140	82,1
Quyichirchiq	65	89	73
Zangiota	220	294	74,8
Yuqori Chirchiq	182	240	75,8
Qibray	298	411	72,5
Parkent	98	118	83,1
Piskent	60	86	69,8
O'rta Chirchiq	143	212	67,5
Chinoz	92	138	66,7
Yangiyo'l	134	205	65,4
Toshkent	158	183	86,3



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


Qibray (10,2)



Chirchiq sh. (10,1)



Zangiota (7,6)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofimalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	9947,7	1987,3	5298,2	2662,2
shaharlar:				
Nurafshon	493,6	32,5	430,8	30,3
Olmalik	1496,2	1224,2	195,8	76,2
Angren	262,4	7,6	208,9	45,9
Bekobod	272,8	131,5	123,5	17,8
Ohangaron	161,1	0,7	139,6	20,8
Chirchiq	379,6	28,7	318,5	32,4
Yangiyo'l	251,7	24,5	188,4	38,8
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	241,5	0	200,6	40,9
Ohangaron	358,9	1,9	281,3	75,7
Bekobod	90,4	0	54,8	35,6
Bo'stonliq	351	44,6	82,9	223,5
Bo'ka	230,3	0	189,6	40,7
Quyichirchiq	538,2	0,4	458,9	78,9
Zangiota	956	0,5	649,4	306,1
Yuqorichirchiq	843,3	113	451,3	279
Qibray	1000	338,7	311,9	349,4
Parkent	253,6	0	80,7	172,9
Piskent	148,8	0	112	36,8
O'rta Chirchiq	455,2	30	258,8	166,4
Chinoz	177,4	0	101,2	76,2
Yangiyo'l	422,7	8,5	239,6	174,6
Toshkent	563	0	219,7	343,3



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 987,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 104,8 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,5 % punktga kamayib, 20,0%ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,3 %ni to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 101,2 %ni tashkil etgan holda 5 298,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

53,3

2023- yil
yanvar-sentabr

56,7

2022- yil
yanvar-sentabr



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (649,4 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 12,3 %), Quyi Chirchiq tumani (458,9 mlrd. so'm yoki 8,7 %) Yuqori Chirchiq tumani (451,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 8,5 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 26,7%ni tashkil etdi yoki 2 662,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 124,9 %ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-sentabr

1900,5
mlrd. so'm


2023- yil
yanvar-sentabr

2662,3
mlrd. so'm

22,8%

26,7%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **212,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **9 735,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,1 %** va **97,9 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70